

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING TASHKILOTCHILIK SIFATLARINI SHAKLLANTIRISH IJTIMOY PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA**

*Oxunov Ilxomjon Abdunabiyevich*  
*Maktabgacha ta'lim nazariyasi kafedrası v.b.dotsent (PhD)*  
*oxunovilhom75@gmail.com*

**ADPI**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining tashkilotchilik sifatlarini shakllantirish ijtimoiy pedagogik muammo sifatida yoritilgan. Shu bilan birga boshlang'ich sinf o'quvchilarining tashkilotchilik sifatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatning samarali natijasi tizimi yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Boshlang'ich sinf o'quvchilari, tashkilotchilik, tashkilotchilik sifatleri, shakllantirish, ijtimoiy pedagogik muammo.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается формирование организаторских качеств учащихся младших классов как социально-педагогическая проблема. При этом выделена система эффективных результатов педагогической деятельности, направленных на формирование организаторских качеств учащихся младших классов.

**Ключевые слова:** Младшие школьники, организованность, организаторские качества, формирование, социально-педагогическая проблема.

**Abstract:** This article describes the formation of organizational qualities of elementary school students as a socio-pedagogical problem. At the same time, the system of effective results of pedagogical activities aimed at forming the organizational qualities of elementary school students has been highlighted.

**Key words:** Primary school students, organization, organizational qualities, formation, social pedagogical problem.

Jamiyat taraqqiyoti ko'p jihatdan fuqarolarning intellektual salohiyati, shijoati, yosh avlodning kamoloti hamda ularning ma'naviy-ahloqiy ijtimoiy xayotida faol ishtirok etishi, xalq manfaatini shaxsiy manfaatlari bilan uyg'unlashtirishga erishishi, ijtimoiy munosabatlarni tashkil etishdagi tashabbuskorligi, shuningdek, yuqori darajada faollik ko'rsata olishlari turli faoliyat yo'nalishlarida muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritish imkonini beradi.

Respublikada komil inson va malakali mutaxassisni tarbiyalash yo'lida amalga oshirilayotgan ijtimoiy guruh harakat yosh avlodda ijtimoiy faollikni shakllantirish, ta'lim, mehnat va ishlab chiqarish jarayonlarida shaxsiy qobiliyatlarini to'laqonli namoyon etish, shuningdek, o'zlari mansub bo'lgan jamoalarning imkoniyatlarini muayyan maqsad atrofida birlashtirish borasidagi layoqatni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Keng ko'lamlı ijtimoiy harakat ko'zlangan maqsad, faoliyat yo'nalishlari, keng aholi qatlamini qamrab olish ko'lami nuqtai -nazaridan umumiylik, jamoaviylik xususiyatiga ega.

Bugungi kunda ta'lim muassasalari oldida ijtimoiy faol, jamiyat sifatlarga egaliklari bilan bog'liq. O'sib kelayotgan avlodning jamiyat hayotining turli sohalarida o'z iqtidori va salohiyatini to'la namoyon eta oladigan yoshlarni tarbiyalash vazifasi turibdi. Chunki ta'lim muassasalari turli yoshdagi o'quvchilarni yagona jamoaga birlashtira olgan maskan sanaladi. Ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni uyushtirish orqali keng

ko‘lamli ijtimoiy faoliyatni tashkil etishdek katta imkoniyatni o‘zida mujassamlashtira olgan. O‘quvchilarning ta’lim muassasalari ijtimoiy hayoti, shu jumladan, turli mavzularda tashkil etiladigan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda faol ishtirok etishlari ularda tashkilotchilik sifatlarining shakllanishi uchun sharoit yaratadi.

Ijtimoiy munosabatlarda faol ishtirok etish har bir shaxsdan ularni tashkillashtirish, ya’ni tashkilotchilik sifatlariga ega bo‘lishni talab qiladi. Manbaalarda “tashkilotchilik” tushunchasi 1) tashkil etish xislati; 2) tashkilotchilik ishi, faoliyati, “jamoani uyushtira bilish, jipslashtira olish, shuningdek, o‘zining shaxsiy ishini to‘g‘ri tashkil qila olish”, “tashkillashtirish ishlarini olib borishga bo‘lgan extiyoj” deya tahriflanadi. Bizning fikrimizcha, tashkilotchilik o‘yin, ta’lim va mehnat ko‘rinishidagi faoliyatlarni tashkil etish, ijtimoiy munosabatlar jarayonini faollashtirish, jamoani ji‘slashtirish va yagona maqsad atrofida birlashtirishda tashabbus hamda nazoratni o‘z qo‘liga olish, uni samarali boshqarish va mavjud imkoniyatlaridan unumli foydalanish, shuningdek, jamoadoshlarni faollik ko‘rsatishga rag‘batlantirish, etakchilik (liderlik) qobiliyatiga egalikdir. Bundan anglanadiki, tashkilotchilik sifatleri shaxsning ijtimoiy tavsiflaridan iborat bo‘lib, uning negizida turli ko‘rinishlardagi faoliyatlarni tashkil qilish; muayyan jarayonda ishtirokchilarni faollashtirish, jamoani birlashtirish va uni samarali boshqarishdagi etakchilik (liderlik) xususiyatlari aks etadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tashkilotchilik sifatlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatning samarali natijasi ularda mustaqillik, faollik, maqsad sari intilish, jamoa yoki mikroguruhlarda tengdoshlari bilan faol muloqotga kirisha olish, o‘yin, ta’lim va mehnat jarayonida hamkorlikka erishish, shuningdek, jamoa a‘zolarini uyushtirish, ularni yagona maqsad atrofida birlashtirish hamda muayyan harakatlarni amalga oshirishda etakchi (lider)likni qo‘lga olish kabilarning samarali shakllanganligi bilan belgilanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tashkilotchilik sifatlarini shakllantirishda “Kamalak” Respublika bolalar tashkilotining umumta’lim maktablaridagi quyi organlari muhim o‘rin tutadi. Tashkilot quyi organlari tomonidan o‘quvchilar zimmasiga qo‘yiladigan vazifalarni bajarishda bevosita jamoa bilan ishlash, jamoa imkoniyatlarini mahlum nuqtaga to‘plash va ulardan samarali foydalanish taqozo etiladi. Ushbu vazifalarni ijobiy hal qilishda esa boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning tashkilotchilik sifatleri - maqsad sari intilish, mustaqillik, tartiblilik, faollik, tashabbuskorlik kabilarga ega bo‘lishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tashkilotchilik sifatlarini shakllantirishda quyidagi talablarga amal qilinishi maqsadga muvofiqdir:

1. O‘quvchilarda tashkilotchilik sifatlarini shakllantirishga pedagogik-psixologik va metodik jihatdan to‘g‘ri yondashish.

2. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlari, shaxsiy imkoniyatlari, qiziqishlari, xayotiy ehtiyojlari va intilishlarini inobatga olgan holda tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish.

3. Boshlang‘ich sinflarda tashkil etiladigan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarning jamoaviy yoki guruhli shakllarda tashkil etilishiga erishish.

4. O‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro psixologik birlik va hamkorlikka asoslanuvchi sog‘lom muhitni qaror to‘tirish.

5. O‘quvchilar faoliyati yuzasidan izchil nazoratni yo‘lga qo‘yish orqali ular tomonidan ijtimoiy topshiriqlarni bajarish jarayonida yuzaga kelgan qiyinchiliklarning oldini olish.

6. Jamoa bilan ishlashda alohida faollik ko‘rsatgan o‘quvchilarni ma’naviy rag‘batlantirish.

Tadqiqot muammosini nazariy va metodik jihatdan muvaffaqiyatli tadqiq etish “tashkilotchilik”, “tashkilotchilik sifatleri”, “tashkilotchilik sifatlarini shakllantirish” kabi tushunchalar mohiyatini to‘g‘ri anglash hamda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida shakllantirish mumkin bo‘lgan tashkilotchilik sifatlarini aniqlab olishni taqozo etadi. Yuqorida aytib o‘tilganidek, ijtimoiy muhit hamda amaliyot mustaqil fikrlay oladigan, erkin va ma‘shuliyatli shaxsni shakllantirishda muhim omil sanaladi.

Shaxs ijtimoiylashuv jarayonining samaradorligini belgilovchi ko‘rsatkich - uning ijtimoiy munosabatlar jarayoniga to‘liq kirishishi, ijtimoiy faolliqi va shaxs faoliyatining muayyan maqsadga yo‘nalganligi sanaladi. Ijtimoiy faollik shaxsning ijtimoiy munosabatlar jarayonidagi ongli ishtiroki, ijtimoiy munosabatlar rivojiga va jamiyat taraqqiyotiga xissa qo‘shish imkoniyatlari darajasi bilan belgilanadi. Shu bilan birga ularda intizomlilik, mustaqillik, tashabbuskorlik, tadbirkorlik, maqsadga intiluvchanlik kabi sifatleri tarbiyalash kelgusida komil inson va malakali, etuk mutaxassis bo‘lib kamolga etishlarini ta‘minlaydi. Kelgusida jamiyatning to‘laqonli a‘zosi va malakali mutaxassis sifatida ijtimoiy munosabatlar hamda kasbiy faoliyat jarayonida faol ishtirok etish, zimmadagi ijtimoiy burchlarni ado etishda shaxsning tashkilotchilik sifatleriga ega bo‘lishi muhim ahamdaiyat kasb etadi.

O‘quvchilarida tashkilotchilik sifatleri shakllantirish va rivojlantirish nafaqat psixologik-pedagogik, balki ijtimoiy muammo sifatida hamda o‘ziga xos dolzarblik kasb etadi. Bugungi kunda boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatleri rivojlantirish, dunyoqarashleri kengaytirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash qanday darajada ahamiyat kasb etayotgan bo‘lsa, ularda tashkilotchilik sifatleri shakllantirish hamda shu qadar muhim vazifa hisoblanadi. O‘quvchilarida boshlang‘ich ta‘lim davridanoq tashkilotchilik sifatleri shakllantirish, mustaqil fikrlash qobiliyati hamda muloqotga tez kirishuvchan bo‘lishleriga erishish ularning kelajakda demokratik jamiyatning faol a‘zolari bo‘lib voyaga etishleri ta‘minlovchi omillardan biri sanaladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tashkilotchilik sifatleri shakllantirishda ularning yosh, psixologik va fiziologik xususiyatlari, shuningdek, layoqat, qiziqish va qobiliyatleri inobatga olish kutilgan natijaning qo‘lga kiritilishiga yordam beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari to‘plami, 2017yil, 6-son, 70-modda.

2. Джамилова Н.Н. Педагогические основы формирования организаторских качеств у учащихся педагогических колледжей. Ташкент Фан, 2007-С.3.

3. Комилова Ф.М. Бошланг‘ич синф ўқувчиларида ташкilotчилик сифатleri shakllantirish. “Yangi nashr” nashriyoti. Toshkent-2010.

4. Комилова Ф.М. Основы формирования творческих способностей учеников начальных классов. “Вопросы науки и образования” журнал май 2018. № 6. С.123.